

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Nasretdinova Farangis Odilovna**

**MINTAQADA IJTIMOIIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

**08.00.12 — “Mintaqaviy iqtisodiyot”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

**UDK: 332.1:316(575.171)(043)**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the  
Doctor of Philosophy (PhD) on economics sciences**

**Nasretdinova Farangis Odilovna**

Mintaqada ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari.....5

**Насретдинова Фарангис Одиловна**

Основные направления повышения эффективности социальных услуг  
региона.....29

**Nasretdinova Farangis Odilovna**

Main directions for increasing the efficiency of social services in the region.....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Nasretdinova Farangis Odilovna**

**MINTAQADA IJTIMOIIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

**08.00.12 — “Mintaqaviy iqtisodiyot”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

**Falsafa doktori (Phd dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4212 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Doschanov Tangribergen Doschanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxitdinov Xudoyor Suyunovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdullayev Farxod Ozodovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_:\_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d, professor

**T.J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, Phd

**B. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d,  
professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning yetakchi mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot strategiyalarida inson omilining ahamiyati keskin oshib bormoqda. Milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari va hukumat o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishi ushbu soha turlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib kelmoqda. YaIMning 65-80 % xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi hamda ushbu tarmoqda band bo'lgan aholining 35 % dan ziyodi aynan ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib bormoqda<sup>1</sup>. Ijtimoiylashgan bozor munosabatlari kuchaygan davrda davlat va nodavlat sherikchiligi turlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'ringa ega bo'lmoqda.

Jahonda iqtisodiy inqirozlar, butunjahon COVID-19 pandemiyasi va uning oqibatlarini ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy xizmatlarga talabni kuchaytirish bo'yicha rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini to'liqroq qondirish uchun dolzarb bo'lgan ilmiy-nazariy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda ijtimoiy xizmatlarga alohida e'tibor berilib ularda xizmatlar sifatini oshiriga qaratilgan bir nechta chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi<sup>2</sup> farmonining qabul qilinishi inson huquqlarining ta'minlanishi, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda kambag'allik darajasini kamaytirish kabi masalalarga davlat siyosati sifatida ustuvor ahamiyat berilishi ushbu sohaning sifat jihatidan o'sishga olib keldi. Ijtimoiy xizmatlarning aholi turmush farovonligini ta'minlashdagi, bevosita aniq ijtimoiy muammolardan bo'lgan kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, zarur tibbiy xizmatlar ko'rsatishdagi roli tobora oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 01.06.2023-yildagi PF-82-son Farmoni<sup>3</sup> asosida tashkil etilgan Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning negizida tuzilgan hududlardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 10.05.2024-yildagi PQ-175-sonli qarori<sup>4</sup>, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga etmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 25.06.2024-yildagi 354-sonli qarori<sup>5</sup> hamda bu sohaga bevosita tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

---

<sup>1</sup><http://stats.oecd.org/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6480342>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/6916638>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/6982043>

amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq I-2014-1-18 “Mintaqada innovatsion ishlanmalarni tadbiq etish asosida qishloq xoʻjaligini intensiv rivojlantirish” davlat innovatsion granti fundamental tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Ijtimoiy xizmatlarning alohida rivojlanish qonuniyatlari, nodavlat sektorining markazlashuviga oid konseptual qarashlar hamda ushbu sohani tarkibiy-funksional yondashuvlar asosida oʻrganish masalalari boʻyicha xorijlik sotsiolog olimlardan Y. Dyurkgeym, R. Merton, N. Smelzer, Y. Xabermas, T. Parsons, N. Luman, M. Veber, G. Blumer, P. Berger, T. Lukman, A. Shyus, X. Lampert<sup>6</sup>, ijtimoiy tadbirkorlik sohasi boʻyicha esa J. Deforney, Dennis R. Young, Jerr Boschee<sup>7</sup> va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Shuningdek, MDH tadqiqotchilaridan A.N. Voronov, N.N. Doroshenko, Y.V. Vavilina, Y.N. Vasileva, I.V. Malofev, L.V. Topchiy, L.M. Kochyan, P.D. Pavlenok, A.M. Rogova, Y.I. Xolostov<sup>8</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ijtimoiy

---

<sup>6</sup>Дюркгейм Э. Социология: ее предмет, метод, предназначение. — М.: Канон, 1995. — 352 с.; R. Merton, Social theory and social structure. 1968 copyright, New York, Amerika, p 267. ; Neil J. Smelser, The Sociology of Economic Life. Englewood Cliffs, N.J., Prentice-Hall, 1963, pp. 27-28.; Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. Цит. в кн. Социология: Курс лекций — Ростов-н/Д: Феникс, 2006. — 509 с.; Парсонс Т. О структуре социального действия. — М.: Академический проект, 2002. — 880 с.; Луман Н. Формы помощи в процессе изменения в общественных условиях. Пер. с нем. Д.В.Озирченко, Н.Малинкина, Социологический журнал. 2000. №1-2. — С. 16-35.; Вебер М. Политические работы, 1895—1919 (Gesammelte Politische Schriften, 1895—1919) / Пер. с нем. Б. М. Скуратова; послесл. Т. А. Дмитриевой. — М.: Практикс, 2003.; Блумер, Г. Социальные проблемы как коллективное поведение / Пер. И. Ясавеева / Сост. и общ. ред. С. А. Ерофеева; 2-е изд., доп. и перераб. — Казань: Изд-во Каз. ун-та, 2001. — С. 150—159.; Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. / Пер. Е. Д. Руткевич. — М.: Медиум, 1995. — 323 с.; Шютц А. Некоторые структуры жизненного мира // Философия языка и семиотика. — Иваново: ИВГУ, 1995. — С. 213–229.; Х.Ламперт. Социальная рыночная экономика. Германский путь. Издательство «Дело», Москва, 1994. стр 46, 66-67.

<sup>7</sup> Defourny, J. & Nyssens, M. (eds.) (2008) “Social Enterprise in Europe: Recent Trends and Developments”, *Working Papers Series*, no. 08/01, Liège: EMES European Research Network. pp. 4-18, 34.; Dennis R.-young and Mary Clark Grinsfelder “Social entrepreneurship and the financing of third sector organizations”, - *Journal of Public Affairs Education*, №17(4), 2009; pp. 543-550; Jerr Boschee and Jim McClurg “Towards a Better Understanding of Social Entrepreneurship. Some Important Distinctions”, Copyright 2003, pp 2-7; Eight Principles for Non-profit Entrepreneurs by Jerr Boschee

<sup>8</sup> Voronov A. N. Social services for families and children in the Russian Federation: problem statement, *Bulletin of Saint Petersburg University. Series 12: Psychology. Sociology. Pedagogy*, 2010, vol. 4, pp. 300–309.; Doroshenko N. N. Social services in the implementation of social policy of the state. *Современные проблемы науки и образования, Modern problems of science and education*, 2013, no. 6, pp. 979-980.; Vavilina Yu. V., Vasilyeva E.N. Social protection and social services for the population are the leading subjects of social work at the municipal level, *Proceedings of an international scientific and practical conference “Modern innovative society: dynamics of formation, development priorities, modernization: economic, social, philosophical, legal, general scientific aspects”*, Part 2, Saratov, 2015, pp. 57–59.; Malofeev I. V. Social services in the system of social services for the population, Moscow, Издательско-торговая корпорация “Дашков И. К”, 2020, 172 p.; Topchiy L. V. Social services for the population: values, theory, practice, Moscow, Publ. House RGSU, 2012, 322 p.; Kochyan L. M. Social service and social protection as a paradigm of Russian social work, *Scientific notes of the Russian State Social University*, 2013, no. 6, pp. 45–54.; Pavlenok P. D. Philosophy and methodology of social work, *Domestic Journal of Social Work*, 2014, no. 2, pp. 43–51.; Rogova A. M. Social services

xizmatlar sohasi ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosatning quyi tizimi, ijtimoiy ishning yetakchi subyekti hamda ijtimoiy faoliyatning tashkiliy shakli sifatida o'rganilgan hamda ijtimoiy xizmatlar fenomenining asosiy elementlari tarkibiy-funksional yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, R.M. Sadikov, N. L. Bolshakovalarning<sup>9</sup> ilmiy tadqiqotlarida ijtimoiy xizmatlar bozorida faoliyat olib borayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro hamkorlik masalalari batafsil yoritilgan.

Ushbu ustuvor sohani o'rganishda O'zbekistonlik olimlardan Abduraxmonov Q.X., Artikov Z.S., Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q., Muxammedov M.M., Saydaqulov R.A., Doschanov T.D., Salayev S.K., Xojiyev Ye.T., Ismailova G.S., Raximova M.A., Xashimov P.Z., Rajabov O.D., Raxmonov D.A.<sup>10</sup> va boshqalarning hissasi katta.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mintaqada ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish va salohiyatini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ijtimoiy xizmatlarning ilmiy-nazariy asoslari, tushunchalari, evolutsiyasi, mohiyati va xususiyatlarini tahlil qilish;

mintaqa ijtimoiy xizmatlar salohiyati va tarkibiy qismlarini ilmiy asoslash;

xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston ijtimoiy xizmatlar sohasida foydalanish imkoniyatini belgilash;

mintaqa ijtimoiy xizmatlari shakllanishi va rivojlanishi holatini tahlil qilish;

mintaqa ijtimoiy xizmatlar samaradorligini miqdoriy va sotsiologik (anketalashtirish) usullari yordamida aniqlash;

biznes va davlat hamkorligi kuchaygan sharoitda ijtimoiy tadbirkorlikni shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

Xorazm viloyatida mintaqa ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish omillari va samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish;

---

for families with children: a sociological analysis, International theoretical journal Credo New, 2017, <http://credo-new.ru/archives/1062>; Kholostova E. I. The system of social services for the population: a historical excursion and a modern view: monograph, Moscow, Dashkov i K, 2016, 368 p.

<sup>9</sup> Sadykov R. M., Bolshakova N. L. Charitable activities in modern Russia, Vestnik universiteta, 2020, no. 7, pp. 188–192. / Sadykov R. M., Bolshakova N. L. Social protection of the population of the municipality, Scientific and methodical electronic journal *Koncept*, 2018, no. 6, pp. 139–146.

<sup>10</sup> Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 56 b; Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali // Samarqand, SamDU, № 1, 2021, 153-164 b; Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. "Zarafshon", 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарканд. 1998. с.282; Saydaqulov R.A. Ijtimoiy xizmatlar va ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi roli "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018-yil; Davlat xizmati: O'quv qo'llanma // Doschanov T.D., Mirahmedov M.M., Xasanov S.X. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. O'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya, 2006; // Doschanov T.D., Salayev S.K. Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari. O'quv qo'llanma, Toshkent, Iqtisod-moliya, 2006, 212 b.; // E.T. Xojiyev, G.S. Ismailova, M.A. Raximova. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma – Toshkent: Baktriapress, 2015.–103 b. <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/884/691>; // Хашимов П.З. Экономика социальной сферы. – Т.: «Университет», 2002. – с. 26. // Rajabov O' D. Ijtimoiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari va ustuvor yo'nalishlari. 08.00.01 – "Iqtisodiyot nazariyasi" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent-2008 y. // Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy xizmat tizimini rivojlantirishning etnomadaniy xususiyatlari. 09.00.04 – "Ijtimoiy falsafa" falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent-2019 y.

ijtimoiy xizmatlar samaradorligini tuman (shahar) lar va ijtimoiy hududlar kesimida tarkibini asoslash va ularning rivojlanishidagi tafovutlarini baholash;

Xorazm viloyati va uning hududlari kesimida ijtimoiy obyektlar samaradorligini korrelyatsion-regresion modellar yordamida statistik baholash va prognozlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati tanlangan.

**Tadqiqot predmeti.** Mintaqada ijtimoiy xizmatlar samaradorligini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy-abstraksiya, tahlil, sintez, anketalashtirish, iqtisodiy statistik, qiyosiy tahlil, guruhlash, xaritalashtirish, iqtisodiy matematik modellashtirish va ko‘p omilli ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlikning davlat ijtimoiy siyosatini shakllantirishdagi ahamiyati “asosiy (50,8%)”, “yordamchi (45,0%)” va “kam ahamiyatli (4,2%)” kabi ijtimoiy mezonlar asosida qiyosiy baholangan;

mintaqa ijtimoiy xizmatlar salohiyatini belgilovchi ijtimoiy va iqtisodiy integral parametrlar hududlar kesimida tahlil qilinib, markaziy hudud “rivojlangan (232 ball)”, shimoliy hudud “o‘rtacha rivojlangan (370 ball)” hamda janubiy hudud “kam rivojlangan (399 ball)” mikrozonalari asoslangan hamda shular negizida ushbu hududlarning xaritasi yaratilgan;

miqdoriy tadqiqotlar asosida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalarini moliyalashtirishda davlat sektorining ulushi 79 %, xususiy sektor ulushi 9,7 %, o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish 3,9 %, DXSh ulushi 1,9 % va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish 5,5 % bo‘lishi aniqlangan;

mintaqadagi ijtimoiy xizmatlarning jami xizmatlar sohasidagi ulushi va unga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2028-yilgacha bo‘lgan ko‘p variantli va ko‘p omilli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda ijtimoiy xizmatlar salohiyati darajalariga tayanib “ijtimoiy xizmatlar” va “ijtimoiy tadbirkorlik” ilmiy tushunchalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tafovutlari asosida mualliflik ta’riflari berilgan;

ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar sohasiga oid xorijiy tajribalarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni umumlashtirib, tizim tarkibini takomillashtirish yo‘nalishlari asoslab berilgan;

Xorazm viloyatida ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlovchi xo‘jalik subyektlarining faoliyati tahliliga oid anketa so‘rovnomalari shakllantirilib, bu orqali mintaqa ijtimoiy xizmatlarining hozirgi holati (“temir”, “ayollar”, “yoshlar” va “mehr” daftarlari), shuningdek davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligi va ularni moliyalashtirish manbalari, yo‘nalishlari hamda ijtimoiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

mintaqa ijtimoiy xizmatlar hajmining ijtimoiy va iqtisodiy parametrlari yordamida ko‘p omilli ekonometrik modellari ishlab chiqilgan va shular asosida o‘rta muddatga bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston Nogironlar jamiyati ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olinganligi hamda muallifning respondentlardan anketa usuli yordamida olgan taklif va fikrlar, ekonometrik modellar asosida olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, ularning rasman vakolatli tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor qoidalari, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va shu asosida davlat va nodavlat xo'jalik subyektlari tomonidan ko'rsatiladigan professional ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish, ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni yanada kengaytirish, mintaqada ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga oid zamonaviy biznes modellarini amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha uslubiy asoslarni ishlab chiqish va mintaqalar ijtimoiy xizmatlar salohiyatini oshirish bo'yicha dasturlar, strategiya va konsepsiyalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, hokimliklar, sohada yangi ijtimoiy xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflardan bevosita foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti", "Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti", "Tadbirkorlik asoslari" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mintaqada ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlikning davlat ijtimoiy siyosatini shakllantirishdagi ahamiyati "asosiy (50,8%)", "yordamchi (45,0%)" va "kam ahamiyatli (4,2%)" kabi ijtimoiy mezonlar asosida qiyosiy baholash bo'yicha takliflar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi Xorazm viloyati tuman va shaharlar bo'limlari faoliyatida foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligi Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 07-4/5972-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif mintaqa ijtimoiy xizmatlarini hududlar kesimida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatini yaratgan;

mintaqa ijtimoiy xizmatlar salohiyatini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy integral parametrlari hududlar kesimida tahlil qilinishi natijasida mintaqa hududlarini rivojlanish darajalariga ko'ra mikrozonalariga (markaziy hudud "rivojlangan (232 ball)", shimoliy hudud "o'rtacha rivojlangan (370 ball)" va janubiy hudud "kam rivojlangan (399 ball)") ajratish hamda shular negizida ushbu hududlarning xaritasini yaratish bo'yicha takliflar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi Xorazm viloyati tuman va shaharlar bo'limlari faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligi

Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 07-4/5972-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish Xorazm viloyatida ijtimoiy xizmatlarning hududlar kesimidagi nomutanosib rivojlanishini aniqlash va har bir hududda ijtimoiy xizmat shakllarining ("ijtimoiy daftarlar") o'zni va ahamiyatini belgilab olishga xizmat qilgan;

miqdoriy tadqiqotlar asosida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarni moliyalashtirishda davlat sektorining ulushi 79 %, xususiy sektor ulushi 9,7 %, o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish 3,9 %, DXSH ulushi 1,9 % va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish 5,5% bo'lishi asoslanganligiga oid takliflar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi Xorazm viloyati tuman va shaharlar bo'limlari faoliyatida foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligi Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 07-4/5972-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan mintaqa va uning hududlarida ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda bu orqali davlat va xususiy sherikchilikni faollashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda foydalanilgan;

ijtimoiy va iqtisodiy parametrlar yordamida ishlab chiqilgan mintaqa ijtimoiy xizmatlar hajmining ko'p omilli ekonometrik modellari va shular asosida olingan o'rta muddatga bo'lgan pragnoz ko'rsatkichlari natijalariga oid takliflar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi Xorazm viloyati tuman va shaharlar bo'limlari faoliyati amaliyotiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligi Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 07-4/5972-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz natijalari asosida ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar hajmining istiqboldagi qiymatlari va unga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ulushlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 4 ta tezislar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlanuvchi birinchi bobida, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy himoya tizimining etakchi bo'g'ini bo'lgan ijtimoiy xizmatlardan

foydalanishning nazariy asoslari, rivojlanish tarixi hamda ushbu sohaga oid asosiy tushunchalar o'rganilgan. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini davlat mablag'lari hisobidan hal qilishdagi asosiy qiyinchiliklar va bunda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy xizmatlarni sifat va miqdor jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish masalasi ushbu muammolarning echimi sifatida ko'rib chiqilgan. Davlat ijtimoiy himoyasining turli modellari va ijtimoiy xizmatlardan samarali foydalanish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlari belgilab berilgan.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularda aralash bozor iqtisodiyoti o'rnini "ijtimoiy bozor xo'jaligi", "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti" egallayotgan bo'lib, bu jarayonda "erkin bozor" tamoyillari "ijtimoiy tenglik", "iqtisodiy insonparvarlik", "adolatli taqsimlash" tamoyillari bilan uyg'unlashmoqda hamda bu uyg'unlikni ta'minlovchi yagona dastak ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlik sohasi ekanligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ijtimoiy xizmatlar - adolatli ijtimoiy siyosatning bir bo'g'ini sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining umumijtimoiy mavqeini muvozanatda saqlashga qaratilgan tibbiy, huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta'limga oid va sog'lomlashtirish shaklidagi moddiy va nomoddiy xizmatlar majmuidir<sup>11</sup>.

Ushbu sohaning rivojlanishi, ayniqsa, o'tgan asrda "ijtimoiy ma'suliyat" g'oyalarining taraqqiy etishi bilan bog'liq. Keyinchalik ijtimoiy farovonlikning asosiy muammolarini hal qilishga diniy va falsafiy yondashuvlar shakllana bordi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan qadimgi diniy tadbirlar sifatida Buddistlar imperatori Ashokaning Hindistondagi farmonlari, Qadimgi Yunoniston va Rimning ijtimoiy-siyosiy ta'limotlari, ilk nasroniy jamoalarining oddiy qoidalari va boshqa shu kabi tarixiy misollarni keltirishimiz mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotlari asosida muallif tomonidan ijtimoiy xizmatlarning ahamiyati, mintaqa ijtimoiy xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy elementlar hamda ularning o'zaro chambarchas bog'langanligi va bu kategoriyaning iqtisodiy mohiyatini turli xil milliy va xalqaro ko'rsatkichlari, ayniqsa inson kapitali va jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi mezonlar (xususan, indekslar) tahlili orqali asoslab berish maqsadga muvofiqligi izohlanilgan.

Hozirgi davrga kelib aholini asosan davlat imkoniyatlaridan kelib chiqib faqat markazlashgan manbalar orqali ehtiyojlarini ta'minlashda hattoki rivojlangan mamlakatlar ham bir qator iqtisodiy-ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda. Inson ehtiyojlari, ayniqsa birlamchi hayotiy ehtiyojlari o'sib borayotgan bir sharoitda faqat an'anaviy ijtimoiy xizmatlar va ularga ajratilgan davlat mablag'lari hisobidan qanoatlantirishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda (1-jadval):

---

<sup>11</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

**Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini davlat mablag‘lari hisobidan hal qilishdagi asosiy muammolar<sup>12</sup>**

<b>T/R</b>	<b>Muammolar</b>	<b>Muammolar mazmuni</b>
1.	<b>Hayotiy ehtiyojlar turlari va hajmining o‘sib borishi</b>	Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ta‘sirida inson ehtiyojlari va zamon talabiga muvofiq yangi hayotiy ehtiyoj turlarining ko‘payishi iste‘mol xarajatlarining oshishiga olib keladi.
2.	<b>Demografik jarayonlarning keskinlashuvi</b>	Har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda inson umrining uzayishi va aholi ijtimoiy tabaqalari o‘rtasidagi nisbatlarning keskin o‘zgarishi.
3.	<b>Ishlab chiqarish jarayonida oddiy va jismoniy mehnat ulushining qisqarishi</b>	Milliy iqtisodiyotda, ayniqsa real ishlab chiqarish sohasida asosiy iqtisodiy resurslar bilan bir qatorda inson omilining jismoniy mehnatdagi o‘zaro nisbiy ulushining qisqarib borayotgani ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini qiyinlashtiradi.
4.	<b>Texnik-texnologik omillar ta‘sirida turli shakldagi ishsizlik darajasining oshishi</b>	Texnik-texnologik omillar ta‘sirining jadal sur‘atlar bilan o‘sib borayotganligi o‘z navbatida inson omiliga xususan intellektual kapitalga talabni keskin oshirishni, mehnat resurslari tarkibida malakali va zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo‘lmagan guruhlarda turli shakldagi ishsizlar (ayniqsa tarkibiy va mavsumiy ishsizlik) sonining ko‘payishi ijtimoiy tabaqalarning muhofazasini kuchaytirish hamda bandligini ta‘minlash zarurligini taqazo qiladi.
5.	<b>Turli ijtimoiy- iqtisodiy bosimlar</b>	Jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy bosimlar (ekologik, psixologik, iqtisodiy, demografik va boshqalar) turli shakldagi qiyinchiliklarga sababchi bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy tabaqalar uchun yangi ish o‘rinlari, qo‘shimcha iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashlar va qo‘shimcha ijtimoiy yordamlar (nafaqalar, ijtimoiy sug‘urtalar) ajratishni taqazo etmoqda.
6.	<b>Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarining miqdoran ko‘payishi</b>	Irsiy kasalliklar, tabiiy, texnik va texnogen oqibatlar natijasida ko‘payib borayotgan turli darajadagi nogironlar, shuningdek ijtimoiy nizolar (etnik, migratsion va boshqalar) sababli etim esirlar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar va qarovsiz qolgan yolg‘iz qariyalarga ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbaalarini izlashni keltirib chiqaradi.
7.	<b>Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan zaruriyat</b>	Ijtimoiylashgan bozor munosabatlari sharoitida faqat davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda turli qiyinchiliklar kelib chiqqanligi sababli tadbirkorlikning ijtimoiy yo‘nalishlarini (ijtimoiy tadbirkorlik) davlat va nodavlat sherikchiligi (DXSh) hamda homiyalar asosida rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.
8.	<b>Sahovatpesha ijtimoiy tadbirkor imidjini yaratishga bo‘lgan zaruriyat</b>	O‘ziga to‘q badavlat, insonparvar, sahovatpesha kishilarning turi hayriya jamg‘armalari tashkil qilishidagi barcha harakatlarini har tamonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning va ularga tegishli jamg‘armalarining jamiyatdagi nufuzini oshirish hamda ushbu shaxslarning hurmatini va ijtimoiy soha rivojiga qo‘shayotgan hissasini ulug‘lash orqali sahovatpesha ijtimoiy tadbirkor imidjini yaratish ijtimoiylashgan jamiyatning alohida zamonaviy xususiyatiga aylanmoqda.

Ijtimoiy xizmatlar sohasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat organlaridan ba‘zi ijtimoiy xizmatlarni nodavlat sektoriga o‘tkazilishiga doir ko‘plab tajribalar to‘plangan. Davlat va nodavlat tashkilotlari ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar

<sup>12</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

sifatida e'tirof etilib, bunda ayniqsa nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) o'rni ahamiyatlidir. Ular turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, atrof-muhitga oid masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan manzillik ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali davlat ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professional ijtimoiy xizmatlarni hamda ijtimoiy siyosatning zamonaviy dasturlarini milliy iqtisodiyotga tadbiiq qilishda xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganib, ularni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qo'llash maqsadga muvofiq. Jumladan, Shvetsiya va Daniya mamlakatlarida ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar asosan sotsial-demokratik tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi, ya'ni ular o'z fuqarolarini yoshidan, jinsida, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qo'llab-quvvatlaydi. Amerika va Germaniya tajribasida esa asosan ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta tizimi aholi guruhlariga mos ravishda alohida shakllangan bo'lib, bu borada qonunchilik tizimi ham tartibga solingan.

Bu kabi xorijdagi qator mamlakatlar tajribasida milliy iqtisodiyotga kerakli jihatlarni olish va tadbiiq etishda eng avvalo ularning alohida xususiyatlarini o'rganish zarur hisoblanadi. Shunga muvofiq yuqorida tahlilari keltirilgan davlatlarning alohida xususiyatlari hamda ularni mamlakatimizda qo'llanilishiga oid ma'lumotlarni bir jadval ko'rinishda tasvirlashga harakat qildik (2-jadval).

2-jadval.

**Ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha jahon tajribasi hamda uni O'zbekistonda qo'llash masalalari<sup>13</sup>**

Mamlakatlar	Ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlarning qisqacha mazmuni	Ushbu tajribalarning O'zbekistonda qo'llanilishi
<i>Nordik model (Keng qamrovli farovonlik modeli)</i>		
<b>Shvetsiya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotdan holining barcha qatlamlari foydalanish huquqiga ega;</li> <li>• Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida davlatning ulushi yuqori;</li> <li>• Ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sotsial-demokratik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.</li> </ul>	Ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar sohasida insoniylik, erkinlik va axloqiy me'yorlarga tayanish kabi sotsial-demokratik tamoyillarga amal qilish
<i>Davlat-xususiy sherikchilik modeli</i>		
<b>AQSH</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Turmush sifatini oshirish va kambag'allikni qisqartirish dasturlari ijtimoiy himoyaning asosini tashkil etadi;</li> <li>• Ijtimoiy xizmatlar sug'urta va nafaqa ko'rinishida amalga oshiriladi;</li> <li>• Ijtimoiy loyihalar asosan DXSH asosida moliyalshtiriladi</li> <li>• Ijtimoiy xizmatlarda NNTlarning o'rni yuqori.</li> </ul>	Umumiy farovonlik dasturlarini xorijiy tajribalarga muvofiqlashtirish
<b>Germaniya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Alohida ijtimoiy himoya modeliga ega hamda alohida tamoyillarga tayanadi;</li> <li>• Ijtimoiy xizmat turlarining ko'pligi;</li> <li>• Sanoat, ishlab-chiqarish xodimlari, nogironlar va nafaqaxo'rlar uchun alohida sug'urtalashga doir qonun hujjatlarining amalda mavjudligi.</li> </ul>	Ijtimoiy xizmatlar sohasiga oid qonunchilikni tartibga solish hamda ijtimoiy sug'urtalash tizimini takomillashtirish
<i>Ijtimoiy farovonlikka yaxlit yondashuvlar modeli</i>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy nafaqa tayinlash tartibi Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonida ishlab</li> </ul>	

<sup>13</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

<b>Yaponiya</b>	chiqilgan ijtimoiy himoya sxemasi doirasida amalga oshiriladi; • Ijtimoiy ta'minotda ayniqsa tibbiy sug'urtalash xizmatining ulushi yuqori	Ijtimoiy ta'minotdan foydalanish tartibini XMT tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya sxemasiga moslashtirish
<b>Niderlandiya</b>	• Ijtimoiy xizmatlar xalqaro tus olib, bolalar huqularini himoya qilish, tinchlikni saqlash, ziddiyatli hududlarda tibbiy xizmatlar ko'rsatishga oid ijtimoiy-global muammolar hal qilinmoqda; • Ijtimoiy xizmatlarda nafaqat milliy balki xalqaro NNTlarning faolligi oshmoqda	Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda NNTlarning ishtirokini kuchaytirish hamda bunda xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha dunyoning ilg'or tajribalarini o'rganib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, rivojlangan mamlakatlarning barchasida aholidan ijtimoiy havfsizlik badal pullari yig'ilib, bu to'lovni amalga oshirgan har bir fuqaro ijtimoiy ta'minot va xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Ayniqsa, Yaponiya tajribasini oladigan bo'lsak, u erda ijtimoiy xizmatlar XMT standartlari asosida tuzilgan ma'lum bir sxemalar doirasida amalga oshirilib, 40 yoshdan oshgan fuqarolarning deyarli barchasi tibbiy sug'urtadan foydalanish huquqiga egadir. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ijtimoiy ta'minot tizimi sotsial-demokratik tamoyillarga asoslanishi, shuningdek, NNT larining davlat va xususiy sektor bilan hamkorlik aloqalari yuqoriligi ularning ijtimoiy missiyasini amalga oshirishdagi tezkorlik va aniqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Buni biz AQSh va Niderlandiya tajribalarida kuzatishimiz mumkin. Ularning bu kabi alohida jihatlarini mamlakatimiz ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar sohasida qo'llashimiz orqali jamiyatdagi bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etishga hamda yuqori turmush faronovligini ta'minlashga erishamiz.

Dissertatsiyaning **“Mintaqa ijtimoiy xizmatlar va ularni rivojlantirish omillari tahlillari hamda baholash usullari”** nomli ikkinchi bobida ijtimoiy xizmatlarning mintqa ijtimoiy muammolarni (kambag'allikni qisqartirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash, jamiyatning nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va h.k.) hal qilishdagi hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdagi faolligini baholashning ilmiy-uslubiy usullari tahlil qilingan. Ijtimoiy korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar hamda ularning “ijtimoiy ta'siri”ni (social impact) baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.


Ijtimoiy korxonalar tushunchasi O'zbekiston talqini bo'yicha asosan, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ishlash, ta'lim olish huquqlarini himoya qilish, ularni kasbga o'rgatish va ular uchun ish o'rinlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi faoliyat hamda institutdir. O'zbekistonda ijtimoiy korxonalar rivojlanish tarixi XX asrning 30-yillaridagi ilk nogironlik jamoat fondi tashkil topish hodisasiga borib taqaladi. 1970-1980-yillarda respublikada bu turdagi korxonalar soni ko'payib, 1987-yilga kelib nogironlar, ko'zi ojizlar, karlar jamiyatlari qoshidagi o'quv-ishlab chiqarish korxonalari 700 dan oshdi. Korxonalarining asosiy maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarni ochiq mehnat bozorida ish bilan ta'minlashdan iborat edi. Ijtimoiy korxonalar mehnat bozorida raqobatga dosh bera olmaydigan va mustaqil ish bilan ta'minlana olmaydigan shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishida “ijtimoiy ko'pri” vazifasini bajarganligi uchun unga hukumat e'tibori kuchaymoqda.

Ijtimoiy korxonalar va NNTlar tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy loyihalarni baholash mezonlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan, ammo hozirgi kunda amaliyotda investitsiya loyihalarni baholash usullaridan foydalanib kelinmoqda. Iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan investitsion loyihalardan farqli o‘laroq, ijtimoiy sohaga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni baholashda asosiy mezon sifatida **“ijtimoiy ta’sir” (social impact)** ko‘rsatkichi qabul qilingan.<sup>14</sup> Baholashning bunday usuli orqali loyihaning nafaqat ijtimoiy ta’siri (samarasi), balki iqtisodiy samarasi (tijorat foydasi) ham hisobga olinadi. Xususan, loyihaning umumiy sof joriy qiymati ( $NPV_{total}$ : Total Net Present Value) loyihaning moliyaviy sof joriy qiymati ( $NPV_{fin}$ ) va ijtimoiy sof joriy qiymati ( $NPV_{soc}$ ) yig‘indisiga teng:

$$NPV_{total} = NPV_{fin} + NPV_{soc} \quad (1)$$

Mintaqa ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlik salohiyatiga baho berishda ikki xil darajada, xususan, mikro va makro darajada yondashildi. Yuqorida keltirilgan ijtimoiy loyihalarning “ijtimoiy ta’sirini” baholovchi formula hamda undagi sof ijtimoiy qiymatni hosil qiluvchi mezonlar ijtimoiy korxonalar doirasida amalga oshirilgan mikro darajadagi yondashuvdir. Milliy iqtisodiyotning ijtimoiy holati, ijtimoiy iqtisodiyot hamda uning tarkibiy elementi bo‘lgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlarning salohiyatiga makro darajada baho berishda inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini o‘lchovchi indeks va ko‘rsatkichlardan foydalanilgan.

Xorazm viloyati mintaqasi ham mamlakat taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, o‘zining inson kapitalini (aqliy va jismoniy) rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik muhiti, ularni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirishdagi bozor mexanizmlari, tadbirkorlik subyektlarini moddiy va moliyaviy rag‘batlantirishdagi zamonaviy usullar orqali boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2023-yilda Xorazm viloyatining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 3,5 foizni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan<sup>15</sup>. Shuningdek, viloyatda bir qancha ijtimoiy korxonalar faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lib, ular aholiga sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan tortib boshqa ijtimoiy yordamlar berish orqali jamiyatdagi muammolarni bartaraf qilishga xizmat qilmoqda. Ularning soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 619 tani tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 2 % ga o‘sgan (1-rasm).



**1-rasm. Xorazm viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)<sup>16</sup>**

<sup>14</sup> Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: теория и практика. — М.: Дело, 2002 — 888 с.

<sup>15</sup> Xorazm viloyatining 2023-yil ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, Urganch-2023-yil, 9-bet

<sup>16</sup> Xorazm viloyatining Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ushbu korxonalar va tashkilotlarni hududlar kesimi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Urganch shahri eng katta ulushga ega bo'lib, 214 tani tashkil etgan. Undan keyingi o'rinlarni Xiva shahri va Urganch tumani egallab, 54 va 49 tani tashkil etgan. Eng kichik ulush Yangibozor va Tuproqqal'a tumanlariga to'g'ri kelib, 19 va 8 ta ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyat yuritayotganligi qayd etilgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat olib borayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 539 tasi yoki 87,1 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan. Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,7 foiz korxonalar, yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishiga 3,5 foiz korxonalar hamda yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishiga 1,8 foiz korxonalar to'g'ri kelgan<sup>17</sup>.

Xorazm viloyati ijtimoiy xizmatlar salohiyatini baholashda viloyat hududining o'ziga xosligi va turli darajasidagi tafovutlar, ijtimoiy xizmatlar subyektlari joylashuvi hamda rivojlanish darajalari hisobga olinib 3 ta yirik zonalarga ajratish taklifi ishlab chiqildi va bu zonalar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Bular ijtimoiy xizmatlar sohasi nisbatan *rivojlangan Markaziy hudud* - Urganch shahri, Urganch tumani, Xiva shahri va Xiva tumani, *o'rtacha rivojlangan Shimoliy hudud* - Yangibozor, Qo'shko'pir, Shovot va Gurlan tumanlari hamda *kam rivojlangan Janubiy hudud* - Bog'ot, Xazorasp, Yangiariq, Xonqa va Tuproqqal'a tumanlaridan tashkil topadi. Ijtimoiy xizmatlar tizimida bunday yondashuv mintaqaning imkoniyatlari va istiqbollari, unga bo'lgan to'siqlar va qiyinchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu hududlarning rivojlanish darajalarini aniqlashda bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan YaHM ning aholi jon boshiga nisbati, xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbati (1-ilova), ijtimoiy xizmatlar hajmi, ijtimoiy korxonalar soni, hududlar kesimi bo'yicha nogironlar soni (2-ilova) va boshqa ko'rsatkichlardan foydalanildi. Ushbu parametrlarni tahlil qiladigan bo'lsak Markaziy hudud maydoni 0,94139 ming kv.km. bo'lgani holda Shimoliy hududdan deyarli 2 barobar, Janubiy hududdan 3,5 barobar kam bo'lsada aholi soni bo'yicha unchalik farq qilmagan holda ijtimoiy xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatiga ko'ra Shimoliy hududdan deyarli 11 barobar va Janubiy hududdan 8 barobar yuqori bo'lgan. Ijtimoiy hududiy mahsulot hajmi Markaziy rayonda Shimoliyga qaraganda deyarli 11 marta hamda Janubiy rayonga qaraganda 8 marta yuqori. Ijtimoiy korxonalar soni bo'yicha hududlarni solishtiradigan bo'lsak, Shimoliy hududda Markaziy hududga nisbatan 1,5 barobar kam korxonalar faoliyat olib borayotgan bo'lsa, Janubiy hududdagi korxonalar miqdoriga nisbatan 3 barobar ko'p ekanligini kuzatishimiz mumkin. Ammo nogironligi bor fuqarolar soni bo'yicha etakchilikni Janubiy hudud egallagan bo'lib, Markaziy va Shimoliy hududlarga nisbatan mos ravishda 1,1 va 1,3 marta ko'pligini statistik ma'lumotlar tasdiqlab turibdi (3-jadval).

---

<sup>17</sup> Xorazm viloyatining 2023-yil ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, Urganch-2023-yil, 84-bet

3-jadval. Xorazm viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari (2023-yil va 2024-yil iyul oyi holatiga ko'ra)<sup>18</sup>

T/R	Ko'rsatkichlar	Hududlar	Maydoni (ming kv.km)	Aholi soni (ming kishi)	Xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbati (ming so' m)	Ijtimoiy xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbati (ming so' m)	Ijtimoiy hududiy mahsulot hajmi (mlrd. so' m)	Ijtimoiy korxonalar soni (birlik)	Nogironlar soni (kishi)	Nogironlik pensiyasini oluvchilar soni (kishi) (2024-yil, 1-iyul holati)	Boquvchisini yo' qotganlik pensiyasini oluvchilar soni (kishi) (2024-yil 1-iyul holati)	Ish bilan band bo'lgan nogironlar soni (kishi) (2024-yil 1-	O'rtacha nominal ish haqi (ming so' m)
I.	Viloyatda jami		6,05	1958,1	88787,2	10293,7	1467,4	3262	55656	25700	12022	552	3759,3
1.1	Urganch sh.		0,02897	149,9	33394,5	5472,3	820,3	595	5231	2667	1341	44	5069,2
1.2	Urganch t.		0,44612	209,2	4788,4	694,1	145,2	313	5415	2386	1327	62	5287,0
1.3	Xiva sh.		0,03408	97,0	6387,3	2003,1	194,3	222	3225	1708	554	41	2975,2
1.4	Xiva t.		0,43222	152,1	4388,5	269,6	41	241	5055	2167	694	63	2939,5
	Jami		0,94139	608,2	48898,7	8439,1	1200,8	1371	18926	8928	3916	210	3567,7
II.	Yangibozor t.		0,34279	90,9	5353,1	277,2	25,2	182	2254	1017	513	19	2532,7
2.2	Qo'shko'pir t.		0,53929	178,9	3643,2	144,2	25,8	263	5245	2277	879	37	2824,2
2.3	Shovot t.		0,45534	177,1	3699,3	214,0	37,9	237	5001	2272	630	66	2905,6
2.4	Gurlan t.		0,43831	154,5	4151,9	150,8	23,3	228	3162	1455	776	38	2772,9
	Jami		1,77573	601,4	16847,5	786,2	112,2	910	15662	7021	2795	160	2758,9
III.	Bog'ot t.		0,44335	172,6	4116,7	202,8	35	253	4088	1820	1050	45	3033,0
3.2	Xazorasp t.		0,44876	202,2	4733,3	175,1	35,4	217	6681	3213	1737	40	2790,9
3.3	Yangiariq t.		0,40272	120,9	4828,8	187,8	22,7	200	3705	1615	617	41	3606,5
3.4	Xonqa t.		0,43285	194,9	4455,2	235,0	45,8	250	5017	2260	1352	38	3026,4
3.5	Tuproqqal'a t.		1,60706	57,9	4907,0	267,7	15,5	61	1577	843	555	18	5435,7
	Jami		3,33474	748,5	23041	1068,4	154,4	281	21068	9751	5311	182	3632,5

<sup>18</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Mintaqa ijtimoiy xizmatlar salohiyatini belgilovchi ushbu ijtimoiy-iqtisodiy integral parametrlar taqqoslama va qiyosiy usullar yordamida hududlar kesimida tahlil qilinib, har bir tumanga mintaqadagi o'rniga qarab ballar belgilandi. Xususan, ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan tumanga "1" balldan (1-o'rin) hamda ko'rsatkichi eng past bo'lgan tumanga "13" balldan (13-o'rin) qilib baholash tartibi ishlab chiqildi. Qolgan tumanlar ham huddi shu tartibda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichi bo'yicha viloyatda egallagan o'rniga qarab integral baholandi (2-,3-,4-,.....11-,12- o'rindagi tumanlarga mos ravishda 2, 3, 4,..... 11, 12 ballar berildi). Shunga muvofiq integral ko'rsatkichlari bo'yicha jami 399 ball olgan Janubiy hudud nisbatan *kam rivojlangan*, 370 ball to'plagan Shimoliy hudud *o'rtacha rivojlangan* hamda 232 ball egallagan Markaziy hudud *rivojlangan* hudud ekanligi aniqlandi (4-jadval). Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlardan ijtimoiy xizmatlar salohiyatini belgilab beruvchi asosiy raqamlar tanlab olinib, kartografik usul orqali Xorazm viloyati xaritasiga hamda rayonlashtirilgan alohida hududlar (Shimoliy, Markaziy va Janubiy hududlar) xaritasiga joylashtirildi (2-, 3-rasmlar).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmon qabul qilindi va bu orqali "mahalla" institutining jamiyatimizdagi rolini oshirish, bundan buyon aholi muammolari, masalalari birinchi bo'g'in sifatida mahallaning o'zida hal etilishini ta'minlash maqsadida "mahalla ettiligi" joriy etilishiga zamin yaratildi<sup>19</sup>. Hozirgi kunda "mahalla yettiligi" tashabbusi bilan mahallalardagi nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligini ta'minlash borasida ham sezilarli natijalarga erishilgan. Jumladan 2024-yil iyul oyi holatiga ko'ra viloyat bo'yicha jami 552 ta nogironlar ish bilan ta'minlangan bo'lib, shulardan eng katta ulush Shovot, Xiva va Urganch tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, Xorazm mintaqasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, xususan nogironlarni ish bilan ta'minlash, ularning faolligini oshirish bilan shug'ullanuvchi korxonalariga soliqlardan imtiyozlar berilib, ularning moliyaviy barqarorligi ta'minlanmoqda. Shu o'rinda aytish kerakki, mintaqada ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining ko'payishi va rivojlanishi, eng avvalo, mintaqadagi har bir tadbirkorlik subyektida ijtimoiy ma'suliyatni, aholi oldidagi vazifalarini anglab etishi va unga rioya qilishi kabi omillarga bog'liq.


---

<sup>19</sup> "Mahalla yettiligi"ning asosiy vazifalari. <https://mirzachul.jizzax.uz/yangiliklar/2558-31012024.html>

4-jadval. Xorazm viloyati shahar, tuman va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida integral darajalari bo'yicha guruhlash<sup>20</sup>

T/R	Ko'rsatkichlar Hududlar	Markaziy hudud (rivojlangan)										Shimoliy hudud (o'rtacha rivojlangan)										Janubiy hudud (kam rivojlangan)															
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10						
I.		13	9	1	1	1	1	4	2	3	5	2	42	11	12	3	4	10	12	12	12	13	12	13	114	23	28	38	37	36	30	33	32	35	34	44	370
I.1	Urganch sh.																																				
I.2	Urganch t.	5	1	6	3	2	2	2	3	4	3	4	36	2	4	13	13	9	3	3	4	6	11	10	78	3	5	12	8	6	7	7	5	9	1	9	72
I.3	Xiva sh.	12	11	2	2	9	2	10	9	12	6	7	82	3	5	12	8	6	7	7	5	9	1	9	72	7	7	10	12	11	8	11	11	7	10	12	106
I.4	Xiva t.	9	8	9	5	6	5	5	7	8	2	8	72	7	7	10	12	11	8	11	11	7	10	12	106	7	7	10	12	11	8	11	11	7	10	12	106
	Jami ball	39	29	18	11	18	11	21	21	27	16	232	23	28	38	37	36	30	33	32	35	34	44	370	23	28	38	37	36	30	33	32	35	34	44	370	
II.																																					
II.1	Yangibozor t.													11	12	3	4	10	12	12	12	13	12	13	114												
II.2	Qo'shko'pir t.													2	4	13	13	9	3	3	4	6	11	10	78												
II.3	Shovet t.													3	5	12	8	6	7	7	5	9	1	9	72												
II.4	Gurlan t.													7	7	10	12	11	8	11	11	7	10	12	106												
	Jami ball													23	28	38	37	36	30	33	32	35	34	44	370												
III.																																					
III.1	Bog'ot t.													6	6	11	9	8	4	8	8	5	4	5	74												
III.2	Xazorasp t.													4	2	7	11	7	10	1	1	1	8	11	63												
III.3	Yangiariq t.													10	10	5	10	12	11	9	10	10	7	3	97												
III.4	Xonqa t.													8	3	8	7	4	5	6	6	2	9	6	64												
III.5	Tuproqal'tat.													1	13	4	6	13	13	13	13	11	13	1	101												
	Jami ball	29	34	35	43	44	43	37	38	29	41	26	399	29	34	35	43	44	43	37	38	29	41	26	399	29	34	35	43	44	43	37	38	29	41	26	399

<sup>20</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi



**2-rasm. Ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha "o'rtacha rivojlangan" va "rivojlangan" Shimoliy hamda Markaziy hudud xaritalari va asosiy ko'rsatkichlari<sup>21</sup>**



**3-rasm. Ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha "kam rivojlangan" Janubiy hudud xaritasi va asosiy ko'rsatkichlari<sup>22</sup>**

Dissertatsiyaning “**Xorazm viloyati ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va ularning prognoz ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan uchinchi bobida mintaqada ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy biznes modellari, ularning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, Xorazm viloyatida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini tahlil qilishda anketa-so‘rovnoma usulidan (yozma va elektron so‘rovnoma shaklida) foydalanilib, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning moliyaviy imkoniyatlari, hamkorlik darajalari, sohadagi mavjud to‘siqlar, barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar tahlili hamda davlat amaliy va moliyaviy yordam shakllari bo‘yicha belgilangan javoblar bo‘yicha natijalarning umumiy

<sup>21</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>22</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi


tahlillari keltirilgan. Bundan tashqari ushbu tahlillar hamda ijtimoiy xizmatlar hajmining ijtimoiy va iqtisodiy parametrlari yordamida ko‘p omilli ekonometrik modellari ishlab chiqilgan va shular asosida o‘rta muddatga bo‘lgan pragnoz ko‘rsatkichlari olingan.

Ijtimoiy tadbirkorlik – tadbirkorlikning ijtimoiy sohaga transformatsiyalashgan zamonaviy shakli bo‘lib, ijtimoiy ne‘matlar ishlab chiqarish, ijtimoiy qiymat yaratish, pirovardida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni innovatsion tarzda bartaraf etish orqali iqtisodiy o‘shishga, aholi ijtimoiy tabaqalarining turmush farovonligiga erishishga xizmat qiluvchi iqtisodiy faoliyatdir<sup>23</sup>.

Davlatimizda ijtimoiy tadbirkorlik va an’anaviy tadbirkorlik tizimida ijtimoiy xizmatlarning turlari va hajmi sezilarli darajada oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga mamlakatda ijtimoiy tadbirkorlik yo‘nalishlarini tashkil qilish va boshqarish modellari hamda ularning xususiyatlarini quyidagi ko‘rinishlarda ajratish lozim (4-rasm).

4-rasm.

**Mintaqa ijtimoiy tadbirkorlik yo‘nalishlarini tashkil qilishning boshqaruv modellari va xususiyatlari<sup>24</sup>**




Biz tadqiqot ishimizda ko‘rsatkichlar tahlili uchun yetarlicha ma’lumot to‘plash maqsadida Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatining tahliliga bag‘ishlangan maxsus anketa so‘rovnomasini shakllantirildi va u bo‘yicha tadqiqot o‘tkazildi. So‘rovnoma beshta bo‘limdan iborat bo‘lib, jami 53 savolni o‘z ichiga olgan. Ijtimoiy xizmatlar

<sup>23</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>24</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatuvchi davlat va nodavlat subyektlarining hududiy joylashuvi, tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat turlari kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlanma usuldan foydalanib, jami 350 ta anketa tarqatilib shundan 311 tasi belgilangan tartibda to'liq to'ldirilgan va foydalanish uchun yaroqli ekanligi aniqlangan.

So'rovnoma natijalariga ko'ra respondentlarning 79,7 foizi ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va boshqalar), 3,2 foizi ishlab chiqarish hamda 2,6 foizi axborot kommunikatsiya sohasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar yoki tashkilotning hamkorlik shakllari bo'yicha berilgan savolga respondentlarning 67,4 foizi davlat, 8,4 foizi xususiy, 8,7 foizi fuqarolik jamiyati hamda 5,2 foizi davlat xususiy sherikchilik asosida hamkorlikni amalga oshirishini tasdiqlashgan. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar kimlar tomonidan moliyalashtirilishi to'g'risidagi savolga so'rovnoma ishtirokchilarining 245 tasi yoki 79 foizi davlat tomonidan moliyalashtirilishini tasdiqlagan bo'lsa, xususiy sektor va DXSH tomonidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar mos ravishda 9,7 va 1,9 foizni tashkil qilgan (5-rasm).



**5-rasm. Subyekt kimlar tomonidan moliyalashtirilishiga oid savolga respondentlarning javobi<sup>25</sup>**

Mintaqada davlat ijtimoiy xizmat shakllaridan hisoblangan “temir daftari”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari” va “mehr daftari” bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat va uning natijalarini baholashda 5 ballik baholash mezonidan foydalanilgan bo'lib, uning natijalariga ko'ra respondentlarning 39,9 va 37,9 foizi mintaqada “temir” va “yoshlar” daftarlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni “yaxshi” mezoniga muvofiq baholagan bo'lsa, 38,3 va 44,4 foiz ishtirokchilar “ayollar” hamda “mehr” daftarlari bo'yicha viloyat tumanlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat natijalariga “a'lo” deya baho berishgan (5-jadval).

Bugungi kunda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlari natijasida nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy samaraga ham ega bo'lmoqdalar. Ammo bu borada tashkilotlarning ulushi turlicha. Xususan, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 36,3 foizi ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faoliyatidan daromad olishini qayd etgan bo'lsa, 32,8 foizi faoliyati daromad keltirmasligini hamda 21,2 foizi faqat ma'naviy samara berishini javoblar orqali tasdiqlagan. Respondentlarning fikriga ko'ra, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati asosan ijtimoiy (91,1 %), iqtisodiy (56,4 %), siyosiy (31,1 %) hamda tashkiliy (24,6 %) funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan (2-ilova)

<sup>25</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

**5-jadval.**

**Mintaqada davlat ijtimoiy xizmat shakllari bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat va uning natijalarini baholash bo'yicha respondentlarning javobi<sup>26</sup>**

№	Baholash Ijtimoiy xizmat shakllari	Respondentlar javoblari sonining foizdagi ulushi (%)				
		eng past	past	o'rta	Yaxshi	a'lo
1	“Temir daftari” bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat natijalari	1,9	2,9	18,3	39,9	37
2	“Ayollar daftari” bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat natijalari	2,3	3,9	20,6	35	38,3
3	“Yoshlar daftari” bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat natijalari	1,6	3,5	16,4	37,9	40,5
4	“Mehr daftari” bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy faoliyat natijalari	2,3	1,9	16,7	34,7	44,4

Endilikda ijtimoiy xizmatlar hajmining so'nggi 5 yillik pragnozlash parametrlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modellarini ko'rib chiqamiz. Viloyatda ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ifodalovchi YaHMni shakllantirishda muhim bo'lgan omillar tanlab olingan holda ularning ta'siri baholanildi. Bunda asosiy e'tibor ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha natijalarga qaratildi. Jumladan ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar soni ( $X_1$ ), iqtisodiyotda band aholi soni ( $X_2$ ), nogironlar soni ( $X_3$ ), nominal hisoblanilgan o'rtacha oylik ish haqi ( $X_4$ ), inflyatsiya darajasi ( $X_5$ ), milliy valyutaning dollarga nisbatan kurs o'zgarishi ( $X_6$ ) kabilar muhim omillar sifatida tanlandi (2-ilova). Ushbu omillarning ta'sir darajalarini baholash uchun dastlab korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Tahlilni amalga oshirishda 2013-2023-yillar ma'lumotlaridan foydalanilgan bo'lib, qiymat ko'rinishdagi barcha ma'lumotlar 2013-yil narxlariga o'tkazilgan (6-jadval).

**6-jadval**

**Korrelyatsion tahlil natijalari<sup>27</sup>**

	Y1	Y2	X1	X2	X3	X4	X5	X6
Y1	1,00							
Y2	0,96	1,00						
X1	0,72	0,79	1,00					
X2	0,91	0,88	0,63	1,00				
X3	0,73	0,86	0,84	0,59	1,00			
X4	0,96	0,98	0,83	0,83	0,86	1,00		
X5	0,46	0,42	-0,08	0,56	0,08	0,33	1,00	
X6	0,93	0,91	0,60	0,87	0,62	0,89	0,68	1,00

Tanlab olingan omillarni YaHMga ta'sirini miqdoriy baholash maqsadida regression tahlillar amalga oshirildi. Omillarning barchasini olgan holatda ishlab chiqilgan model barcha mezonlar bo'yicha talab darajasida, ammo aniqlanilgan koeffitsiyentlar Student testi natijalari bo'yicha adekvat emasligi kuzatildi. Shu sababdan korrelyatsion test natijalari hamda qarab chiqilgan variantlar asosida quyidagi model ishlab chiqildi.

<sup>26</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>27</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

$$Y_1 = -15844,2 + 31,8 * X_2 + 1,7 * X_4 \quad (2)$$

Mintaqada yaratilgan YaHMga iqtisodiyotda bandlar soni hamda nominal hisoblanilgan o'rtacha ish haqining ta'siri mavjud ekanligi va ushbu ta'sirlarni baholash uchun aniqlanilgan koeffitsiyentlar adekvat ekanligi aniqlanildi. Viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda bandlar soni va ish haqini oshirish eng maqbul yo'nalishlardan hisoblanadi. Tabiiyki, bunda ijtimoiy xizmatlarning roli yuqori hisoblanadi, chunki korrelyatsion tahlil natijalaridan ma'lumki YaHM hajmi yuqorida ta'kidlanganidek yalpi ijtimoiy xizmatlar bilan yuqori bog'liqlikka ega. Ushbu bog'liqlikni baholash maqsadida yalpi ijtimoiy xizmatlarning YaHMga ta'siri alohida qarab chiqildi.

$$\ln(Y_1) = 6,78 + 0,44 * \ln(Y_2) \quad (3)$$

Ushbu modelning adekvatligini asoslash uchun zaruriy mezonlar va ularning natijalari 7-jadvalda keltirib o'tildi hamda ularning natijalari talab darajasida va model asosida ilmiy asosga ega bo'lgan xulosalar olindi.

### 7-jadval

#### Yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmini YaHMga ta'sirini baholash natijalari<sup>28</sup>

Model 8: OLS, using observations 2013-2023 (T = 11)

Dependent variable: l\_Y1

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	6.78579	0.177546	38.22	<0.0001	***
l_Y2	0.443056	0.0327426	13.53	<0.0001	***
Mean dependent var	9.174744		S.D. dependent var	0.273306	
Sum squared resid	0.034995		S.E. of regression	0.062357	
R-squared	0.953150		Adjusted R-squared	0.947944	
F(1, 9)	183.1013		P-value(F)	2.75e-07	
Log-likelihood	16.01906		Akaike criterion	-28.03812	
Schwarz criterion	-27.24233		Hannan-Quinn	-28.53976	
rho	0.001623		Durbin-Watson	1.625051	

Viloyatda yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmini bir foizga oshirish YaHMni 0,44 foizga oshirishga yordam beradi va bu natijalar yuqorida keltirilgan fikrlarni miqdoriy jihatdan asoslaydi. Ushbu modelning adekvatligini asoslash uchun zaruriy mezonlar va ularning natijalari keltirib o'tildi hamda ularning natijalari talab darajasida va model yordamida ilmiy asoslangan xulosalar olindi. Ushbu natijalardan ma'lumki YaHMning oshirishini ta'minlovchi muhim omillar yalpi ijtimoiy xizmatlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuni hisobga olgan holda ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar hajmini keyingi besh yil uchun prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun quyidagi modeldan foydalanildi.

$$Y_2 = 96,87 + 3,47 * t^2 \quad (4)$$

Grafik usul bo'yicha aniqlanilgan natijalar kvadratik modeldan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. Ishlab chiqilgan modelning barcha koeffitsiyentlari Student mezon natijalariga ko'ra adekvat, determinatsiya koeffitsiyenti 0,96 ga teng va Fisher mezon natijalari ham talab darajasida, ya'ni

<sup>28</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

ehtimollik ko'rsatkichi deyarli nolga teng. Faqat Durbin-Uatson statistikasi 1,21 ga teng bo'lgani holda quyi (DL=0,93) va yuqori (DU=1,32) chegaralar orasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu oraliqda xulosa chiqarish imkoniyati mavjud bo'lmaganligi sababli boshqa mezonlar natijalariga tayangan holda keyingi besh yil uchun yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmini prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (8-jadval).


8-jadval

**Xorazm viloyatida ko'rsatilgan yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmini kvadratik model asosida hisoblanilgan prognoz qiymatlari<sup>29</sup>**

For 95% confidence intervals,  $t(9, 0.025) = 2.262$

Yillar	Prognoz qiymatlari	Oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati	Standart xatolik	95 foizlik interval
2024	596,5	110,7	38,0	(510,645, 682,380)
2025	683,3	114,5	41,6	(589,247, 777,263)
2026	776,9	113,7	45,9	(673,056, 880,816)
2027	877,6	113,0	51,0	(762,146, 992,969)
2028	985,1	112,3	56,8	(856,604, 1113,63)

Prognoz natijalarining ko'rsatishicha keyingi besh yilda viloyatda yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmini barqaror va yuqori sur'atlardagi o'sishi ta'minlanadi. Ya'ni o'rtacha o'sish sur'ati 12,8 foizni tashkil qilgani holda 1,83 barobarga oshishi ta'minlanadi va 2028-yilga borib 985,1 milliard so'mga etadi. Agarda 2018-2023-yillardagi o'zgarishni qarab chiqadigan bo'lsak, 2,18 barobarni tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki oldingi besh yillikdagiga nisbatan o'sish sur'atlarida sekinlashish kuzatiladi. Yalpi ijtimoiy xizmatlarning YaHMga ijobiy ta'siri mavjudligini hisobga olgan holda hamda 2-model asosida aniqlanilgan elastiklik koeffitsiyentlaridan foydalangan holda viloyatda yaratilgan YaHMning keyingi besh yil uchun prognoz qiymatlarini 6-rasmda keltiramiz.



**6-rasm. Aniqlanilgan elastiklik koeffitsiyenti va yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmini prognoz qiymatlari asosida YaHMni keyingi besh yil uchun hisoblanilgan prognoz ko'rsatkichlari<sup>30</sup>**

Yalpi ijtimoiy xizmatlar hajmidagi ijobiy va yuqori o'sish sur'atlari keyingi yillarda YaHM hajmini oshirishga xizmat qiladi. Amalga oshirilgan hisob kitoblar natijalariga ko'ra viloyatda YaHMning keyingi besh yildagi o'rtacha o'sish sur'ati 5,7 foizni tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, YaHMning o'zgarmas narxlardagi hajmi 1,32 barobarga oshishi ta'minlanadi. Tadqiqot natijalarini ko'rsatishicha viloyatda

<sup>29</sup>Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>30</sup>Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlanishi bandlar soni va nominal hisoblanilgan ish haqiga bog'liq bo'lib, ushbu omillarning ijobiy o'sishini ta'minlash o'z navbatida ijtimoiy xizmatlar hajmiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ya'ni, yalpi ijtimoiy xizmatlarni yuqori sur'atlardagi o'sishiga erishish aholi bandligi va daromadlarini oshirishga, pirovardida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy xulosa qilib aytganda ushbu natijalar YaHM hajmini oshiradi.

## XULOSA

Mintaqa ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiylashgan iqtisodiyot sharoitida jamiyatda iqtisodiy qiymat yaratishga qaratilgan faoliyat turlari bilan bir qatorda ijtimoiy qiymat yaratuvchi, aholi farovonligiga zaruriy ehtiyojlarni ta'minlovchi ijtimoiy soha yo'nalishlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda ijtimoiy sohaga nafaqat ta'lim, sog'liqni saqlash sohasi, balki aholining turar joylar bilan ta'minlash hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy va nomoddiy xizmatlar ko'rsatuvchi ishlab chiqarish tarmoqlari ham kiradi. Ammo asosiy ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi subyekt sifatida nafaqat davlat balki nodavlat tashkilotlari, xususan sahovatpesha insonlar faoliyatining o'rnini ham salmoqli bo'lmoqda.

2. Ijtimoiy xizmatlarning aholi turmush farovonligini ta'minlashdagi, bevosita aniq ijtimoiy muammolardan bo'lgan kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, zarur tibbiy xizmatlar ko'rsatishdagi roli tobora oshib bormoqda. Bu esa ayniqsa iqtisodiyotdagi inqirozlar, jamiyat (tibbiyot) dagi pandemiya davrlarida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Bunday jiddiy vaziyatlarda ularni tezkor va izchil hal qilishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlaridan bo'lgan "yoshlar daftari", "temir daftar", "ayollar daftari" va "mehr daftari" kabi dasturlari asosida aholi qatlamlarining guruhlanishi hamda ularga berilayotgan moliyaviy imtiyozlar, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning ahamiyati beqiyos bo'lmoqda.

3. Ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha mamlakatlarning ilg'or tajribalari shuni ko'rsatadiki, ularda aholidan ijtimoiy havfsizlik badal (sug'urta) pullari yig'ilib, bu to'lovni amalga oshirgan har bir fuqaro keyinchalik ijtimoiy ta'minot va xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Ayniqsa, Yaponiya tajribasiga ko'ra u erda ijtimoiy xizmatlar XMT standartlari asosida tuzilgan ma'lum bir sxemalar doirasida amalga oshirilib, 40 yoshdan oshgan fuqarolarning deyarli barchasi tibbiy sug'urtadan foydalanish huquqiga egadir. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ijtimoiy ta'minot tizimi sotsial-demokratik tamoyillariga asoslanishi, shuningdek, NNT larining davlat va xususiy sektor bilan hamkorlik aloqalari yuqoriligi ularning ijtimoiy missiyani amalga oshirishdagi tezkorlik va aniqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek bu sohadagi AQSH va Gollandiya tajribalarining alohida jihatlarni mamlakatimiz ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar sohasida qo'llashimiz orqali jamiyatdagi bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etishga hamda yuqori ijtimoiy-iqtisodiy faronovlikni ta'minlashga erishamiz.

4. Ijtimoiy sohalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham asosiy muammo bo‘lib turgan bir paytda davlat va xususiy sherikchiligi hamda soxovatpesha insonlar yordamida ijtimoiy tadbirkorlik yo‘nalishini jadal rivojlantirishni toqozo qilmoqda. Shuningdek NNTlar faoliyatini takomillashtirish hamda ijtimoiy loyihalarning ijtimoiy muammolarni innovatsion echishga yo‘naltirilgan turlarining ahamiyati keskin oshmoqda. Ushbu kreativ echimlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish pirovardida mamlakat jadal rivojlanishiga, aholi faravonligi o‘shishiga xizmat qiladi.

5. Xorazm viloyatining o‘ziga xos iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlari asosida farqlanish darajalari asoslandi. Shunga muvofiq mintaqani 3 ta o‘ziga xos bo‘lgan hududlari belgilab olindi. Bunda mintaqahududlari tarkibi ularning iqtisodiy va ijtimoiy parametrlariga qarab asoslandi.

6. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning turli darajalariga va turli birliklarda berilganligi sababli ular ta‘sirini baholashda integral yondashuv asosida baholash amalga oshirildi.

7. Amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayanib biz mintaqahududlari va uning hududlarini integral ko‘rsatkichlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish xaritalarini shakllantirdik.

8. Mintaqada ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid yo‘nalish va modellarni (mintaqaning endogen xususiyatlariga tayanilgan model, mintaqaning ekzogen xususiyatlariga tayanilgan model hamda mintaqaning ham tashqi ham ichki xususiyatlari asosida shakllantirilgan ijtimoiy tadbirkorlik modellari) shakllantirdik hamda ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholovchi parametrlarni (demografik, iqtisodiy, infratuzilmaga, ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohasiga oid ko‘rsatkichlar) tarmoqlar kesimida tahlil qilish taklifini ishlab chiqdik.

9. Tadqiqotimizda Xorazm viloyatida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari, sahovatpesha homiylar faoliyatini tahlil qilishga asoslangan anketalashtirish usuli yordamida olingan natijalar tahlili o‘tkazildi. Bunga ko‘ra ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyat sohasi, hamkorlik darajalari hamda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha olingan natijalar turlicha bo‘lib, bunda davlat sektorining ulushi hozirgi davrda yuqoriligicha qolmoqda. Soha rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan kamchiliklar sifatida “Jamiyat a‘zolarining hozirgi yetuk ma‘naviy, madaniy, insonparvar shaxs sifatida shakllanmayotganligi” hamda “Tadbirkorlar va o‘ziga to‘q insonlar tabaqasining yaxshi shakllanmaganligi” kabi javoblar respondentlar tomonidan eng ko‘p belgilangan natijalar sifatida qayd etilgan bo‘lsa, ijtimoiy xizmatlar tizimi barqarorligiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillar sifatida “Mahalliy hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasligi va byurokratik to‘siqlarning ko‘pligi” hamda “Resurslar va mahsulotlar bozoridagi monopollashuvi, korrupsiyalar mavjudligi” variantlari eng ko‘p belgilangan javoblardan bo‘ldi.

10. Tadqiqot natijalari viloyatda keyingi davrda jami xizmatlar hajmiga nisbatan yalpi hududiy mahsulot va ijtimoiy xizmatlar o‘shish sur‘atlarining yuqori bo‘lishi asoslangan. Amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko‘ra viloyatda YaHMning keyingi besh yildagi o‘rtacha o‘shish sur‘ati 5,7 foizni tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, YaHMning o‘zgarmas narxlardagi hajmi 1,32 barobarga oshishi ta‘minlanadi.

11. Keltirilgan tahlillar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati xizmatlar tizimining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlaridan, davlat-xususiy sherikchilik imkoniyatlaridan foydalangan holda investorlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish, moliyaviy, texnik-texnologik ta'minot va ilg'or boshqaruv qoidalari hamda saxovatpesha investorlar moliyaviy mablag'i asosida shakllantiriladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.09.2024.I.55.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**Насретдинова Фарангис Одилловна**

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ РЕГИОНА**

**08.00.12 – “Региональная экономика”**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ургенч – 2024**

**Тема диссертации доктора философии по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2024.2.PhD/Iqt4212 в Высшей аттестационной комиссии.**

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета ( [www.urdu.uz](http://www.urdu.uz) ) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ( [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) ).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Досчанов Тангриберген Досчанович</b> доктор экономических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Мухитдинов Худоёр Суюнович</b> доктор экономических наук, профессор <b>Абдуллаев Фарход Озодович</b> кандидат экономических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Каракалпакский государственный университет имени Бердака</b>

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_ : \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). Адрес 220200, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (998-62) 224-6700; факс: (998-62) 224-6700; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года.

(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года).

**И.С.Абдуллаев**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**Т.Ж.Рахимов**

ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

**Б. Рузметов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, DSc., профессор

**ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В стратегиях социально-экономического развития лидирующих стран мира значимость человеческого фактора резко возрастает. Усиление сотрудничества между социальными услугами, субъектами социального предпринимательства и правительством в национальных программах социально-экономического развития способствует формированию и развитию этих видов сфер. 65-80 % ВВП приходится на сферу услуг, и более 35% населения, занятого в этой отрасли, работает именно в сфере социальных услуг<sup>31</sup>. В эпоху усиления социализированных рыночных отношений важную роль в формировании и развитии государственных и негосударственных форм партнерства играют различные формы партнерства.

В условиях глобального экономического кризиса, глобальной пандемии COVID-19 и ее последствий все большее значение приобретает исследование в области развития, направленное на повышение спроса на социальную защиту и адресные социальные услуги. Это требует разработки актуальных научно-теоретических, организационно-экономических обоснований для более полного удовлетворения социально-экономических потребностей населения.

В новом Узбекистане в последние годы особое внимание уделяется социальным услугам, разрабатывается ряд мер, направленных на повышение качества услуг. Принятие Указа Президента Республики Узбекистан «О новой Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>32</sup>, придание приоритета в качестве государственной политики таким вопросам, как обеспечение прав человека, усиление социальной защиты и снижение уровня бедности, привело к качественному росту данной сферы. Социальные услуги играют все более важную роль в обеспечении благосостояния населения, сокращении бедности, являющейся непосредственной причиной социальных проблем, обеспечении занятости, предоставлении необходимых медицинских услуг.

Данная диссертационная исследование в определенной степени служит выполнению масштабных стратегических мероприятий, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан «О комплексных мерах по оказанию качественных социальных услуг и помощи населению и созданию эффективной системы контроля» от 01.06.2023г. № PF-82<sup>33</sup>. Созданное на базе этого Указа Национальное агентство социальной защиты населения, а также, создание центры социального обслуживания «Инсон» в регионах, Постановление Президента Республики Узбекистан от 05.10.2024 № PQ-175 «О дополнительных мерах по улучшению предоставления социальных услуг лицам, пострадавшим от угнетения и насилия»<sup>34</sup>, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25.06.2024 №354 «О мерах по созданию системы оказания социальных услуг женщинам и их несовершеннолетним детям, подвергшимся притеснениям и насилию»<sup>35</sup> а также в других нормативно-правовых документах,

<sup>31</sup><http://stats.oecd.org/>

<sup>32</sup>Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года № ПФ-60 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

<sup>33</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6480342>

<sup>34</sup> <https://lex.uz/docs/6916638>

<sup>35</sup> <https://lex.uz/docs/6982043>

принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Связь исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполняется диссертация.** Диссертационная работа выполнена в соответствии с планом научных исследований Ургенчского государственного университета I-2014-1-18 в рамках проекта фундаментальных исследований Государственного инновационного гранта на “интенсивное развитие сельского хозяйства на основе внедрения инновационных разработок в регионе”.

